



**2-TOM, 2 - SON  
YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI – YOSHLAR  
UCHUN ULKAN IMKONIYATLAR YILI**

Ixtiyor Abdurazzakov

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti tyutori

Mamlakatimizda 2024 yil – Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili deb e'lon qilindi. Bu yurtimiz aholisini 65 foizini tashkil qiluvchi yoshlarimiz uchun juda keng imkoniyatlar yili bo'lishi kutilmoqda.

So'nggi yillarda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning faol va bevosita ishtirokchisi, jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyanchiga aylantirish mamlakatimizning ustuvor va strategik vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Yoshlarga oid davlat siyosatini huquqiy bazasini takomillashtirish borasida ham katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, keyingi 7 yilda yoshlar siyosati samaradorligiga oid jami 100 ga yaqin qonun va qonunosti hujjatlari, jumladan, 2016-yil 14-sentyabrdan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonuni qabul qilinganligi buning yaqqol isboti deyishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasida yoshlarning eng katta tashkiloti bo'lgan O'zbekiston yoshlar ittifoqi 2017-yil 30-iyunda tashkil etilib, uning asosiy maqsadi yoshlarning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirishga qaratildi. Prezident taklifiiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida yoshlar kunini belgilash to'g'risida" gi qonun bilan 30 iyun – "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi.

Quvonarlisi shundaki, hukumat darajasida yoshlarga e'tibor berilib, ular uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratib berilayotgan bir vaqtida onli ravishda o'z maqsadi sari ildam qadamlar tashlab yurtimiz sha'nini yuksaklarga ko'tarayotgan yoshlar ko'payib bormoqda.

Joriy yilning – Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili, deb e'lon qilinishi ham yurtimizda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarning uzviy va mantiqiy davomi bo'ldi. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tomonidan "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi O'zbekiston prezidenti farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilindi.



## **2-TOM, 2 - SON**

Davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston prezidenti farmoni quyidagi 7 ta blokdan iborat bo‘lib, 36 ta bandni o‘z ichiga oladi:

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar;  
Biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha islohotlar;  
Strategiyaning ijtimoiy siyosat yo‘nalishidagi islohotlar;  
Strategiyaning iqtisodiyot yo‘nalishidagi islohotlar;  
Strategiyaning suv resurslarini tejash va ekologiya yo‘nalishidagi islohotlar;  
Strategiyaning davlat boshqaruvi va sud-huquq yo‘nalishidagi islohotlar;  
Strategiyaning xavfsizlik va tashqi siyosat yo‘nalishidagi islohotlar.  
Davlat dasturi loyihasi esa 5 ta qism va 100 ta maqsaddan iborat.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yoshlarga va tadbirkorlikka oid maqsadlariga aynan uyg‘undir. Quvonarli tomoni shundaki, zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida bugungi yoshlarning talab va ehtiyojlarini o‘rganib, yangidan-yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda.

Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashhg‘ul bo‘lishini ta’minlash uchun:

- ✓ har bir viloyatda bittadan “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish;
- ✓ har yili 500 nafar iste’dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborish;
- ✓ maktab bitiruvchilarining kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta’minlash, kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazish;
- ✓ “Top-500” ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish kabi maqsadlar o‘rin olgan.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosatini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirishda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslarini alohida ta’kidlash lozim. Davlatimiz rahbarining yoshlar kamolotiga qarayotgan doimiy e’tibori, ayniqsa, ta’lim islohotlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu islohotlarning yutug‘i esa yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini kuchaytiradi.

